Qattiq maishiy chiqindilarни utilizatsiya qilish orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni takomillashtirish.....	1047 Sherqulov Nodir Erkin o'g'li
Мировой опыт использования денежных и натуральных трансфертов в социальном обеспечении....	1052 Гулноза Тохировна Самиева
Davlat xaridlarini amalga oshirish orqali raqobatni rivojlantirish yo'llari	1057 Majidov Nizomjon
Raqamli iqtisodiyot davrida kontent marketingdan foydalanish va uning bosqichlari	1064 Tohirjonov Ahmadjon Tohirjon o'g'li, Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna
Aksiyadorlik jamiyatlarini kapitalini shakllantirish manbalari va usullarini takomillashtirish.....	1070 Norqulov Mirlsaid Tulqin o'g'li
Qishloq xo'jaligi sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish zaruriyati	1075 Badalov Jamshid Jamolovich
Foya solig'i tushumi va uning O'zbekiston soliq-budget tizimidagi ahamiyati.....	1080 Shirinov Sabir Erkinovich
O'zbekistonda davlat korxonalarini aksiyalarini moliya bozorlarida sotishni jadallashtirish yo'nalishlari	1084 Anvar Eshmatov
Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlari	1088 Ametova Nasiba Danilovna
Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish	1092 Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096 Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101 Raxmonova Aziza Tolibovna
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan	1106 Umarov Elshod G'ulom o'g'li
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lrim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112 Yuldashev Elmurod Abdujalil o'g'li
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана	1116 Икрамова Ханифа Одиловна
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121 Kamalova Jamila
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloq qilishning istiqbollar.....	1125 Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi	1131 Ne'matov Oybek Ismatullayevich
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития	1136 Туйчиев Комилжон Лазизович
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati	1143 O'ktamova Nozima Narzulla qizi
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish	1146 Umarov Abdulquddus Abdilkhatovich
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах	1151 Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Farzod Шохрухович
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158 Усманова Дилфузахон Иброхимовна
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities	1163 Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Kolmatov Sanjarbek Xojimamatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishing asosiy ko'rsatkichlari.....	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choraları	1181
Xamraulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati.....	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budget mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhitini jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'llim sifatini ta'minlash oliy ta'llim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilhom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'naliishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
Shamsiyev O'ktam Sayftidinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'naliishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiropi va ahamiyati.....	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	

СОДЕРЖАНИЕ СОДАРИЈА



TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA ISLOMIY BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Absamatov Askar Ergashovich

Termiz davlat universiteti Moliya va moliyaviy texnologiyalar kafedrasini
tadqiqotchisi



Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklari faoliyatida islomiy bank xizmatlarini rivojlantirish yo'llari hamda mavjud muammolar tahlili va rivojlantirish istiqbollarini takomillashtirish haqida so'z boradi. Shuningdek, maqolada islomiy bank xizmatlaridan foydalanish istiqbollarini O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyatida foydalanishni rivojlantirish istiqbollaridagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha mualif yondashuvlari va takliflari keltirilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, islom moliyasi, mushoraka, sukuk, mudoraba, murobaha, moliyalashtirish, islom banklari, islom darchalari, islomi bank xizmatlari.

Abstract: This article will discuss the ways of developing Islamic banking services in the activities of commercial banks, as well as improving the analysis and prospects for the development of existing problems. The article also presents current problems in the prospects for the development of the use of Islamic banking services in the activities of commercial banks of the Republic of Uzbekistan, as well as author's approaches and proposals to eliminate them.

Key words: commercial banks, Islamic finance, musharaka, sukuk, mudaraba, murabaha, financing, Islamic banking, Islamic banking services.

Аннотация: В данной статье пойдет речь о путях развития исламских банковских услуг в деятельности коммерческих банков, а также о совершенствовании анализа и перспективах развития существующих проблем. В статье также представлены актуальные проблемы в перспективах развития использования услуг исламского банкинга в деятельности коммерческих банков Республики Узбекистан, а также авторские подходы и предложения по их устранению.

Ключевые слова: коммерческие банки, исламские финансы, мушорака, сукук, мудораба, муробаха, финансирование, исламский банкинг, услуги исламских банков.

KIRISH

Islom banklari ham an'anaviy bank xizmatlariga muqobil ravishda o'z xizmat va mahsulotlarini mijozlarga taqdim etib keladi. Bank sifatida ular mijozlardan mablag'larni jalb etib, bu mablag'larni biror loyihsiga investitsiya qilish orqali foyda olishga harakat qilishadi. Faqat bu o'rinda Islom banki islom moliyasi tamoyillariga muvofiq faoliyat yuritishi bilan an'anaviy bankdan farq qiladi. Bank tizimining barqaror rivojlanishi bank mahsulotlarining samarali faoliyat ko'rsatadigan bozorisiz mumkin emas. Buning sababi shundaki, bank tashkilotlari tomonidan mahsulot va xizmatlarni taqdim etish banklar faoliyatining funksional asosi bo'lib xizmat qiladi. Bank tizimi o'z funksiyalarini to'liq bajara olmasa va mijozlarga bank mahsulotlarini samarali taqdim eta olmasa, barqarorligini yo'qotadi. Tarixiy jihatdan jahon moliya bozorida bank mahsulotlari bozorining ikkita markazi shakllangan bo'lib, Yevropa va yaqin Sharq bank mahsulotlari bozori, spekuliyativ xarakterga ega bo'lib, bu moliya bozorining iqtisodiyotning real sektoridan ajralishini kuchaytiradi va inqirozning yangi bosqichlarini keltirib chiqaradi.

Yangi islomiy banklar, sug'urta tashkilotlari, investitsiya jamg'armalari tashkil qilinib, hatto ushbu tizim musulmon bo'lmagan mamlakatlarda ham keng rivojlanayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlis Palatalariga yo'llagan Murojaatnomasida: "Mamlakatimizda Islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqt-soati yetib keldi. Bu borada Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi" [1], – deb ta'kidlab o'tdi.



Jahon moliya bozorida har tomonloma ishtirok etishiga va inqiroz hodisalari ta'siriga duchor bo'lishiga qaramay, Islom huquqi normalariga muvofiq xizmat ko'rsatadigan banklar hali ham yuqori darajadagi ishonch-lilik va barqarorlikni namoyish etmoqdalar, ammo Islom banklarining tajribasini milliy iqtisodiyotimizga joriy etish dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda, so'nggi yillarda turli iqtisodchi olimlarning ilmiy adabiyotlarida islom moliysi, jumladan, islom bank ximatlari mavzusi ko'plab tushunchalar va ilmiy izlanishlar mavjud. Quyida Islom bank xizmatlari iqtisod, moliya va islom huquqi sohalaridagi mashhur olimlar fikrlarini keltirib o'tamiz. Jumladan: Muhammad Kabir Hasan o'z asarlarida Islomiy bank tizimini, Islomiy kapitalni moliyalashtirish turlarini tahlil qilgan, shuningdek, moliyaviy operatsiyalarda bitimning o'zidan tashqariga chiqadigan diniy jihatni ta'kidlab o'tgan^[2]. Shuningdek, Sidun Xaron va Vana Nursofiza Vana Azmilar nafaqat bank tizimi, balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari ham Islom iqtisodiyotiadolat va axloqiy qadriyatlarga asoslanganligini ta'kidlab, Islomiy bank tizimi ushbu qadriyatlarni hisobga olgan holda ishlashi kerak deya ta'kidlab o'tishgan. Xususan, ular Islom va tijorat banklari tushunchalarini ajratishni taklif qilishgan, chunki Islom banklari Islom qonunlari yoki shariat qonunlariga asoslangan faoliyat tamoyillarini hisobga olgan holda bank faoliyatini hamda har qanday tarzda diniy ta'lomitlarni hisobga olgan tarzda amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan muassasalardir, tijorat banklari esa, aksincha, faqat biznes maqsadlariga erishish uchun ishlayshagini keltirib o'tganlar^[3].

Pokistonlik islomshunos olim Muhammad Fahim Xonning ta'kidlashicha, Islom bankining vazifalari, birinchidan, barcha bank faoliyatini islom banklari tamoyillari asosida faoliyat yuritishiga ko'maklashish, ikkinchidan, bank operatsiyalarining barcha darajalarida Islom tamoyillari, qonunlari va an'analarini amalga oshirishni rag'batlantirish va uchinchidan, diniy ta'lomit sifatida Islom tamoyillarini hisobga olgan holda ishlaydigan boshqa moliya institutlarini yaratishdir^[4].

P. Trunin, M. Kamenskix, M. Muftyaxetdinovlarning fikricha, "Islomiy bank ijobiy moliyaviy natijaga erishish uchun mablag'larni depozit hisobvaraqlariga qabul qiladigan va shariat qonunlari asosida investitsiya qiladigan moliya institutlarini birlashtiradi. Bularga to'liq huquqli Islomiy banklar va "Islom darchalari" tomonidan belgilangan Islomiy moliyalashtirish usullaridan foydalanigan holda individual moliyaviy xizmatlar ko'rsatadigan an'anaviy banklarning bo'linmalari kiradi" – deb ta'kidlab o'tishgan^[5].

Umuman olganda yuqorida keltirilgan chet ellik olimlarning fikrlarini inobatga olgan holda, Islom banklari faoliyati, birinchi navbatda, iqtisodiyotning rivojlanishiga qo'shimcha turki beradigan innovatsion islomiy bank xizmatlari yoki moliya sanoati uchun innovatsion loyihalaridir. Shuningdek, bizning fikrimizcha, Islomiy bank xizmatlari jamiyat manfaatlari darajasida har bir alohida mamlakatda tasdiqlangan pul-kredit siyosati doirasida va shariat qonunlari asosida ishlaydigan hamda ijtimoiy yo'naliishga ega bo'lgan mega-regulyator sifatida kredit tashkilotlari to'plami va milliy bank sifatida belgilash mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida va taraqqiy etgan tijorat banklarida islom bank xizmatlaridan foydalanish usullarining tashkiliy-huquqiy asoslarini mamlakatimizdagい mavjud asoslar bilan taqqoslab, tegishli xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda Islom banklarining rivojlanish dinamikasi an'anaviy banklarning rivojlanish dinamikasi bilan samarali raqobatlashib bormoqda. Islom banklari, boshqa banklar singari, jismoniy shaxslar va muassasalardan moliyaviy resurslarni jalgiladi va ularni ishlab chiqarish faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun tashqi moliyalashtirishga muhtoj bo'lgan tijorat firmalariga yo'naltiradi. Shunday qilib, Islomiy banklar an'anaviy banklar bilan bir xil moliyaviy positachilik funksiylarini bajaradilar. Islomiy banklar va asosiy banklar o'rtaсидagi asosiy farq bu funksiylarning qanday bajarilishi, ya'ni mablag'larni qanday ko'paytirishi va ulardan qanday foydalanishidir. Tahlil o'tkazish qulayligi uchun mablag'lardan foydalanish manbalari va yo'naliishlarini farqlash kerak.

Islom banklari uchun moliyaviy manbalar sirasiga quyidagilar kiradi:

1. Joriy hisobraqamlar (ya'ni mijozlarning bank hisobraqamlaridagi qoldiqlar);
2. Jamg'arma hisbvaraqlar (ya'ni muddatli omonat (depozit)lardagi pul mablag'lari);
3. Investitsiya hisbvaraqlari (ya'ni mijozlarning daromad olish maqsadida investitsiya qilgan pul mablag'lari).



Barcha islam banklari jismoniy shaxslar va tadbirkorlardan iborat bo'lgan o'z mijozlarining joriy hisobraqlarini boshqaradi. Ushbu hisobraqamlar mijozning hisobidagi mablag'larni ishonchli saqlash va mijozlarga xizmat qilish maqsadida (masalan ularning topshirig'i bilan pul o'tkazish, turli xizmatlar uchun to'lash va h.k.) ochiladi.

Mazkur hisobraqamlarning asosiy xususiyatlari quyida keltirilgan:

- joriy hisobraqamlar, odatda, bank tilida “talab qilib olinadigan depozitlar” deb ham nomlanadi. Ushbu hisobraqamlar jismoniy shaxslar yoki tashkilotlar/kompaniyalar tomonidan mahalliy yoki xorijiy valyutada ochilishi mumkin;
- bank ushbu hisobraqamlardagi pul mablag'larini mijoz talab qilgan vaqtida to'liq qaytarilishini kaflatlaydi va mijozga bank bu pullardan foydalanib topgan foydasidan hech qanday ulush, foizlar yoki boshqa shaklda daromad to'lamaydi;
- mijozlar ushbu mablag'larni bankka ulardan foydalanish vakolatini berishadi. Demak, agar ushbu mablag'larni muayyan loyiha yo'naltirish natijasida biron bir foyda ko'rildigan bo'lsa ham, bu foyda faqat bankka tegishli hisoblanadi. Mabodo, zarar ko'rilsa, zarar ham faqat bank tomonidan qoplanadi;
- depozit va pul mablag'larini jalb qilish bo'yicha hech qanday shartlar mavjud emas;
- odatda, hisobraqam egalari o'zlarining hisobraqamlaridan istagan vaqtlarida pul yechib olish huquqiga ega bo'lishadi.

So'nggi yillarda Islomiy banklari o'z aktivlarini tez sur'atlar bilan ko'paytirmaqdalar. Uning jahon bank sektoridagi ulushi barqaror o'sishda davom etmoqda. 2017-yilden 2022-yilgacha bozor o'rtacha 6,7 foizga o'sdi. 2022-yilda uning umumiy aktivlari 2,871 milliard dollarga baholandi. Islom banklarining eng mashhur vositasi murabaha. Bu bank mahsulotni sotib oladigan va mijozga Marja bilan sotadigan operatsiyadir.


Din va moliya o'rtasidagi chambarchas bog'liqlik an'anaviy musulmon mamlakatlarida Islom banklarining kuchli konsentratsiyasini belgilaydi. Bugungi kunda Islom bank sektori aktivlarining 43 foizi Fors ko'rfazida, yana 40 foizi – yaqin Sharq va Shimoliy Afrikaning boshqa mamlakatlarida, 15 foizi foizi – Janubiy va Janubi – Sharqiy Osiyoda, 2 foizi esa – dunyoning qolgan qismida taqsimlangan.

Eron va Saudiya Arabistonli aktivlar bo'yicha shubhasiz yetakchilikka o'rinni egallab mos ravishda 1,094 milliard dollar va 753 milliard dollarni tashkil etmoqda. Kuchli beshlikka Quvayt, Malayziya va Qatar ham kiradi. Shu bilan birga, butun dunyo bo'ylab musulmon aholisining migratsiyasi Yevropa va AQShda Islomiy moliya institutlarining tobora tarqalishiga olib keladi. Islomiy bank aktivlari bo'yicha Islomiy bo'Imagan 5 ta mamlakatga Buyuk Britaniya, Bosniya va Gersegovina, AQSh, Kipr va Shvetsiya kiradi. Islom dunyosidan tashqarida Buyuk Britaniya halol moliya sohasida yetakchi hisoblanadi. 2022-yilda bu yerda Islomiy bank aktivlari hajmi 7,7 milliard dollardan oshdi. Ushbu bozorning o'ziga xos xususiyati mamlakat ichida va fors ko'rfazi petromonarxiyalaridan elita auditoriyasiga xizmat ko'rsatishga qaratilgan. Turli xil moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talab tufayli Buyuk Britaniyada moliyaviy investitsiyalar bilan shug'ullanadigan WahedInvest va ko'chmas mulk investitsiyalarini taklif qiluvchi Yielders kabi kompaniyalar ishlaydi. Buyuk Britaniya, shuningdek, bir global sukuk markazidir. Eng yirik Islomiy banklar ham, musulmon mamlakatlari hukumatlari ham sukukni London Fond birjasiga joylashtiradilar [6].

Bugungi kunga kelib, dunyo moliya bozorida Islomiy moliyalashtirish g'oyatda dolzarb manbagaga aylanib bormoqda. Buni islomiy moliyalash har yili 15-20 foiz o'sishga erishayotgani ham tasdiqlaydi. Islomiy banking jahon bo'yicha 400 dan ortiq moliya institutlari tomonidan amaliyotda qo'llanib kelinmoqda, uning yillik aylamasi 800 mlrd. AQSh dollarini tashkil etadi.

Mamlakatimizda faoliyat yuritatog'an bir qancha tijorat banklari ham bugungi kunda islom bank xizmatlарini joriy etish yuzasidan amaliy ishlar olib bormoqdar. Xususan, InfinBANK tomonidan tadbirkorlik subyektlari ning biznes loyihalari moliyalashtirish maqsadida Xalqaro Islom savdo-moliya korporatsiyasi hamda Xususiy sektorni rivojlantirish Islom korporatsiyasi bilan kelishuvlar tuzilgan bo'lib, ayni vaqtida bank tomonidan mazkur kelishuvlar doirasida "murabaha (nasiya savdo)" shartlari asosida loyihalarni moliyalashtirish amalga oshirilmoxda.

Mazkur kelishuvlar doirasida tadbirkorlik subyektlari tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish maqsadida shariat talablariga muvofiq asosiy vositalar hamda aylanma aktivlar xaridini amalga oshirishi mumkin. Bank tomonidan 1 yildan 5 yilgacha bo'lgan muddatga, 100 mingdan 5 million AQSh dollarigacha bo'lgan miqdorda islom moliyalashtirish liniyalaridan foydalanish mablag'lar ajratmoqda. Shuningdek, Xususiy tarmoqni rivojlantirish bo'yicha Islom Korporatsiyasi (ICD) mamlakatimizda islom moliyasining rivojlanishida alohida o'rinni egallagan. Shu kunga qadar ushbu tashkilot tomonidan umumiy miqdori 400 million AQSh dollariga teng mablag' mamlakatdagi 18 ta tijorat banklari, 2 ta lizing kompaniyasi orqali 260 dan ortiq kichik va o'rta biznes vakillarini to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish uchun yo'naltirildi va shu orqali 5,000dan ortiq yangi ish o'rinnari tashkil etishiga erishilgan.

1-rasm: Islam moliya xizmatlari tarkibiy tuzilishi va industriyasi¹

O'zbekistonda islom bank xizmatlari sanoatining keng qamrovli joriy etilishi mamlakatimiz uchun quyidagi imkoniyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi:

- xorijdan kelayotgan investitsiyalar hajmini oshirish va diversifikatsiyalash;
- bank tarmog'ida halol va shaffof raqobat muhitini yaratish hamda bank tizimi aktivlarini diversifikatsiyalash imkoniyatini yaratish;
- aholi va biznes vakillari ixtiyoroda bo'lgan bo'sh pul mablag'larining iqtisodiyot rivojlanishida maksimal ishtirokini ta'minlash;
- mamlakatda kapital bozorini rivojlantirish va diversifikatsiyalash;
- ko'plab yangi ish o'rnlari yaratish;

¹ Muallif ishlansmasi



- aholining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali, moliya bozoridagi faolligini ko'tarish;
- Islom moliya xizmatlari industriyasini rivojlantirish orqali mamlakatda infratuzilmani muvofiqlashtirish va yangilash;
- yangi moliyaviy muassasalar tashkil qilish;
- kambag'allikka qarshi kurashish davlat dasturini amalga oshirishga hissa qo'shish;
- yangi yo'nalishda kadrlar tayyorlash dasturini yaratish.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari, shuningdek, mahalliy va xorijiy investorlar uchun bank xizmatlari bozorida raqobatbardoshligi va jozibadorligini oshirishga imkon beradigan Islom banklarining ulkan salohiyatiidan maqsadli foydalanishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi umuman Islom bank ishini rivojlantirish, xususan, Islom bank xizmatlaridan foydalanish uchun jiddiy salohiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, Islom moliyasi va Islom bank xizmatlari jadal rivojlanib, ularning tarqalish geografiyasini kengaytirmoqda. Bugungi kunga kelib, umuman "Islom iqtisodiyoti" va "Islom bankchiligi" uning fond bozorlari va ularda sotiladigan moliyaviy vositalarni o'rganish, xususan, korxonalarni moliyalashtirishning muqabil shakllarini aniqlashga imkon beradi. Moliyaviy tizimni qurish va faoliyat ko'rsatishda Islomiy mamlakatlarning ijobji tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Hozircha hech bir mahalliy tashkilot qo'shimcha kapital jalb qilish uchun Islomiy texnologiyalardan foydalangan.

Shariat tamoyillariga muvofiq ishlaydigan an'anaviy banklararo valyuta bozoriga samarali muqobil usullarning yo'qligi Islom banklari tomonidan likvidlikni boshqarish sohasida jiddiy qiinchiliklarga olib keladi. Islom bank xizmatlarining rivojlanishi munosabati bilan mavjud moliya institutlarining kengayishi va yangilarining yaratilishi malakali kadrlarga ehtiyoj tug'diradi, ammo Islom moliyasi va bankchiligi sohasida mutaxassislar tayyorlash bilan shug'ullanadigan ta'lim muassasalarining hozirgi imkoniyatlari bunga javob bera olmayapti. Shu munosabat bilan Islom moliya institutlari xodimlarni mustaqil ravishda o'qitishga e'tibor qaratishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Islom banklariga qiziqish ortib borayotganiga qaramay, u hali rivojlanishning dastlabki bosqichida. Bozorlarga kirish Islomiy bank xizmatlarini taklif qila boshlagan an'anaviy banklararo raqobatining kuchayishi ("Islomiy darchalari" – shariat me'yorlariga muvofiq xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanadigan bank filiallarini ochish orqali), an'anaviy banklarning Islomiy banklarga aylanishi va bozorda yangi qatnashchilarning paydo bo'lishi bilan bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
2. Hassan K. M., Lewis M. K. Handbook of Islamic Banking. 2007. 433 p.
3. Кхарон С., Нурсофиза В., Азми В. Исламская финансовая и банковская система: Философия, принципы и практика. Казан': Линова-Медиа, 2012. 536 п.
4. Khan M. F. Money and Banking in Islam. Institute of Policy Studies, 2013.
5. Трунин П., Каменских М., Муфтияхетдинова М. Исламская финансовая система: современное состояние и перспективы развития. М.: ИЭПП, 2009. 88 с.
6. <https://uz.kursiv.media/2023-10-08/islamskij-banking-v-mirovoj-finansovoj-sisteme-vyvody/>

Yashi

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

